



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___ *-umumiy o'rta ta'lim maktabi*
tarix fani o'qituvchisi

_____ *ning*
20__-20__-o'quv yilida 7-sinflar uchun
II chorak O'zbekiston tarixi fanidan

DARS

ISHLANMALARI

20__-20__-o‘quv yili 7-sinf O‘zbekiston tarixi fanidan II chorak
taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Turon xalqlarining harbiy san’ati	1		
2.	VI-VII asrlarda Turon xalqlari madaniy hayoti	1		
3.	VI-VII asrlarda Turon xalqlari madaniy hayoti	1		
4.	VII-VIII asr boshlarida Turonda siyosiy vaziyat	1		
5.	VII-VIII asr boshlarida Turonda siyosiy vaziyat	1		
6.	VII-VIII asr boshlarida Turonda siyosiy vaziyat	1		
7.	VIII asrda Xuroson va Movarounnahr	1		
8.	VIII asrda Xuroson va Movarounnahr	1		
9.	3-Nazorat ishi	1		
10.	Qarluqlar. O‘g‘uzlar. Toxiriylar	1		
11.	Qarluqlar. O‘g‘uzlar. Tohiriylar	1		
12.	4-Nazorat ishi	1		
13.	Takrorlash (Qarluqlar. O‘g‘uzlar. Tohiriylar)	1		
14.	Somoniylar.	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Turon xalqlarining harbiy san'ati

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga tarixiy voqealar haqida katta hajmdagi ma'lumotlarni berish, ularni tahlil qila olish, voqealarning sabablarini tushuntira olish, tarixiy manbalari bilan ishlash, tarixiy makon va zamon o'rtasidagi bog'liqlikni anglash kabi qobiliyatlarni shakllantirish..

Tarbiyaviy: tarixiy u yoki bu voqeaning kelib chiqish sabablari, insoniyat, jamiyat rivojiga ta'sirini tushuntira olish va o'zining mustaqil munosabatini bildira olish, tarixdan to'g'ri saboq chiqarish ko'nikmalari shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy sifatlari hamda dunyoqarashini boyitib borish, milliy qadriyatlarining mohiyati, ijtimoiy taraqqiyot va shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni, ahamiyati haqida tushuncha berish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib, savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish; ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

orasta kiyinish, yurish turishda madaniy me'yorlarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish, umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish; o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish; xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

III. Yangi mavzu bayoni:

Har bir tuman o'zining tug'i (nishoni) ga ega bo'lgan. Mazkur nishon uzun nayzaga bo'ri yoki boshqa biror hayvonning tilla suvi yuritilgan boshi va otning yoli bilan birga o'rnatilgan. Turk jangchilari qat'iy intizomga rioya qilganlar va ular o'z davri uchun yengilmas kuch hisoblangan. Hujum odatda kutilmaganda boshlangan. Jangdagi aniqlik, abjirlik hamda tezkor harakatlar g'alabani ta'minlagan. Ular yolg'ondan chekinish kabi harbiy taktika usulidan keng foydalanishgan. Himoyalani chog'ida aylana usulini qo'llashgan. Jang taktikasida dushmanning asosiy kuchlarini ikki yoki bir necha qismlarga ajratib yakson qilishgan. Turon harbiy san'atida og'ir qurollangan suvoriylar – otliq askarlar va ularga xos jang olib borish usullari V–VI asrlarda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega edi. Turkiy suvoriylar tomonidan uzangining kashf etilishi otliq askarlarga ot ustida mustahkam o'tira olish va og'ir aslahalar



bilan qurollanish imkonini bergan. Qo‘shinda og‘ir qurollangan askarlardan tashqari yengil qurollangan otliq va piyoda lashkarlar ham bo‘lgan. Shaharlarda ixtisoslashgan qurolyarog‘ ustaxonalari faoliyat olib borgan. Jangchilarning qurollari ham takomillashgan. Qurolsozlar yasagan himoyalovchi yarog‘lar jangchini boshidan oyog‘igacha muhofaza qilgan. Sug‘d jangchilari haqida xitoylik sayyoh tomonidan bitilgan esdaliklarida quyidagicha ma‘lumot mavjud: «Samarqand hokimining qabilasidan bo‘lgan ko‘pchilik jangchilar jasur va g‘ayratli bo‘lib, o‘limni nazar-pisand qilmagan. Janglarda hech bir raqib ularga bardosh bera olmagan.

Ular jang davomida qurol-aslahaning barcha turlaridan mohirona foydalanishgan». Jangchilarning ustunligi ikkiyoqlama o‘tkir tig‘li qilichlarida bo‘lgan. Sovutlari ham uzun bo‘lib, askarlarning oldi va orqasini kesiklari bo‘lgan charm bo‘laklari muhofaza qilgan. Oyoq va qo‘llarini himoyalash maqsadida maxsus metall parchalaridan tayyorlangan sovut kiyishgan. Himoya vositalaridan biri bo‘lgan dubulg‘a temirdan yasalgan. Dubulg‘a yelkada osilgan zirhli yelkapo‘sh bilan bir bo‘lgan. Bu davrda shaharlar, qal‘alar va boshqa binolar mudofaa maqsadlariga mos tarzda barpo etilgan.

Turon xalqlari o‘z shahar-qal‘alarini tadbirkorlik bilan mudofaa etganlar. Yirik dehqonlarning Xorazm, Sug‘d va Toxaristondan topilgan uy-qo‘rg‘onlari burjli mudofaa devorlari va kamondan o‘q otishga mo‘ljallangan shinaklariga ega bo‘lgan. Qo‘rg‘onga kirish joyining ro‘parasida xabar beruvchi qo‘riqlor minorasi qad rostlagan. Shahar atrofidagi xandaq suv bilan to‘ldirilib, unga ko‘tarma ko‘prik orqaligina

o‘tish mumkin bo‘lgan. Qo‘rg‘onlarni nayza bilan qurollangan jangchilar qo‘riqlab turgan.

Tahlikali xabar bo‘lganda jangchilar devor va burjlardagi o‘z o‘rinlariga shoshilganlar.

Dushmanlar qasrga kirish uchun xandaqni ko‘mishlari, darvozani buzishlari

lozim bo‘lgan. Qasr himoyachilari devordan turib ularning boshiga tosh uloqtirganlar, qaynoq suv quyganlar, nayza, yoy o‘qlarini yog‘dirganlar.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Bu davrda Yevropada va boshqa Sharq davlatlarida harbiylarning ko‘rinishi qanday edi?

2. Nima uchun Turon hududidagi harbiy qurol-aslahalar dunyoga mashhur va keng tarqalgan edi?

3. Yuqori sifatli hujumkor va himoya qurollarini ishlab chiqaruvchi maxsus markazlar yaratish uchun qanday bilimlar kerak bo‘lgan?

V. O‘quvchilarni rag‘batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: Sug‘d jangchilarining qurollanishiga oid bo‘lgan matnga asoslanib, bu davrda hunarmandchilikning qaysi yo‘nalishi jiddiy rivojlanganligi haqida fikr bildiring.

O‘IBDO‘: _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: VI-VII asrlarda Turon xalqlari madaniy hayoti

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga tarixiy voqealar haqida katta hajmdagi ma'lumotlarni berish, ularni tahlil qila olish, voqealarning sabablarini tushuntira olish, tarixiy manbalari bilan ishlash, tarixiy makon va zamon o'rtasidagi bog'liqlikni anglash kabi qobiliyatlarni shakllantirish..

Tarbiyaviy: tarixiy u yoki bu voqeaning kelib chiqish sabablari, insoniyat, jamiyat rivojiga ta'sirini tushuntira olish va o'zining mustaqil munosabatini bildira olish, tarixdan to'g'ri saboq chiqarish ko'nikmalari shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy sifatlari hamda dunyoqarashini boyitib borish, milliy qadriyatlarining mohiyati, ijtimoiy taraqqiyot va shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni, ahamiyati haqida tushuncha berish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib, savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish; ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

orasta kiyinish, yurish turishda madaniy me'yorlarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish, umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish; o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish; xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

III. Yangi mavzu bayoni:

Oldingi darslardan olgan bilimlaringiz asosida quyidagi savollarga javob berish ga harakat qiling:

1. Karvon yo'llari orqali Turk xoqonligiga qaysi davlatlarning madaniyatlari kirib kelgan va ularning ta'siri qanday bo'lgan?
2. Qadimgi tariximizdan so'zlovchi eng qadimgi yozma manba haqida ma'lumot bering. Manba qaysi tilda yozilgan? Mazkur manba mamlakatimiz hududida qadimgi xalqlarning madaniyati darajasini belgilaydimi? Misollar keltiring.
3. Insoniyatning madaniyatini belgilash uchun qanday omillarga e'tibor qaratiladi? Madaniyat darajasi nimalar bilan o'lchanadi? Berilgan rasmlar asosida davr madaniyatiga baho bering.



To'hyuquq bitiktoshi, VIII asr.
Janubiy Mo'q'uliston

Mamlakatimiz tarixida ta'lim tizimining rivojlanishi uzoq tarixiy jarayon bo'lib, yozuvning paydo bo'lishi bilan bu jarayon yanada jadallashgan. Qadimgi tosh bitiklar, teri, sopol, yog'och (taxta) va keyinchalik qog'ozlarga tushirilgan ma'lumotlar ta'lim tarixidan so'zlovchi manba hisoblanadi.



Ov manzarasi tasvirlangan mis idish. Eftaliylar davri, V asr. Pokistondan topilgan

Arxeologik topilmalar, qo'lyozmalar, Behustun yozuvlari va boshqa yozuvlarning mavjudligi, savdo aloqalari mazkur hududda ta'limning rivojlanganlik darajasini ko'rsatadi. Tariximizdan darak beruvchi eng qadimgi yozma manba «Avesto»da nafaqat diniy balki, dunyoviy bilimlar, tarixiy voqealar hamda ma'naviy- ma'rifiy qarashlar haqidagi ma'lumotlar to'plangan. Xorazmdagi Jonbosqal'a va Tuproqqal'adan topilgan zardushtiylarning ibodatxonasi diqqatga sazovor inshootlarning o'rtasida qo'sh devorlar bilan qurshalgan va ichkariga aylanma yo'lagi orqali kiriladigan to'g'ri burchakli bino bo'lgan. Xonalardan teriga va yog'ochga yozilgan turli mazmundagi hujjatlar hamda katta-kichik haykalchalar topilgan. Bu esa, ibodatxonaga tutash binolarda ta'lim maskanlari, huquq idoralari, ma'muriy-xo'jalik ishlari bilan shug'ullanadigan joylar bo'lganidan dalolat beradi. Xorazmda o'g'il bolalarga o'qish, yozish, hisob-kitob o'rgatilgan. Shuningdek, ularga

geografiya, zoologiya, botanika, astronomiya, muhandislik, tibbiyot va me'morchilik kabi turli fanlardan bilimlar berilgan. Mamlakatimiz hududida yashagan xalqlar tangrichilik, zardushtiylik, buddaviylik, xristianlik va boshqa dinlarga e'tiqod qilishganliklarini yuqoridagi mavzulardan bilib oldingiz. Mazkur dinlarning ibodatxonalarida maxsus maktablar bo'lib, ta'lim oluvchilarga dinning asoslari o'rgatilgan. Xat-savodi chiqarilgan. Xususan, buddaviylik ta'limoti bilan bog'liq an'analar o'rganilganida, har bir ibodatxonada rohiblar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari bo'lganligi aniqlangan. Misol uchun buddaviy o'quv maskanlari – viharalarda asosiy fan sifatida Daxarma, ya'ni diniy qonun-qoidalar va Xudoning mohiyati hamda irodasi (xudojo'ylik) haqida ta'lim berilgan.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Nima deb o'ylaysiz, yangi alifboni butun jamiyatga joriy etish uchun qancha vaqt kerak bo'ladi, qanday tadbirlarni amalga oshirish kerak? Bu alifboni keyingi avlodlar ham bilishi uchun nimalarga e'tibor qaratish kerak?
2. Turkiy hukmdorlar davlat ishlarini olib borishda sug'diy til va yozuvdan foydalanganligining ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlang.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Guruhlarga bo'lining va yangicha alifbo tuzib ko'ring. Uni taqdimot qiling. Taqdimotingizni tuzgan alifboda yozishga harakat qiling. Qanday muammolar yuzaga keldi?

Guruhda ishlash jarayonida	Matn yozish jarayonida	Taqdimot jarayonida

O'IBDO': _____
(imzo) (sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

30 listdan iborat O‘zbekiston tarixi fanidan 7-sinf II chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**